

SAMDU ALISHER NAVOIY MUZEYI TARIXIDAN

Magistrant: Abdiyev F

Ilmiy rahbar: dots. Ergashev B.E

Ushbu maqola Samarqand davlat universiteti ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasi, Samarqand davlat universiteti tarixi va bugungi faoliyatini haqida yoritilgan,

Muzey-bu o'tmishimiz, hozirgi kun va kelajagimiz ko'zgusidir. Unda xalqimiz tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlari o'z aksini tapadi. Alisher Navoiy muzeyi ham xuddi shunday maqsadlarda barpo etilib qaytadan rekonstruksiya qilindi. Muzey eshiklari barcha talabalar va jamoatchilik uchun ochiq. Yurtimiz tarixi ko'zgusi bo'lgan muzeylarga tashrif buyurish har bir shaxsga ma'naviy ozuqa beradi.

O'tgan yillar mobaynida Alisher Navoiy muzeyi eksponatlar, qo'lyozmalar va hujjatlarni saqlash orqali arxiv vazifasini bajardi. Muzey o'quv jarayoniga yordamchi baza sifatida ishlatildi. Muzey ekspozitsiyalaridan va qo'lyozmalardan ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanildi. Ma'naviy va ma'rifiy sohada targ'ibot va tashviqot ishlari olib borildi. Yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda asosiy vosita sifatida ishlatildi.

Alisher Navoiy muzeyi 1996-yil tashkil etilgan. Muzey talabalarni o'qitish jarayonida ilmiy tadqiqot, o'quv-amaliy, madaniy va tarbiyaviy baza bo'lib faoliyat ko'rsatdi. Muzey eksponatlari ko'p yillar mobaynida jamoatchilik asosida va shaxsan muzey xodimlari tomonidan rasm, hujjatlar, qo'lyozma va boshqa buyumlar bilan to'ldirilgan.

2008-yil oktyabr-noyabr oylarida muzey binosi ichkari tomondan to'liq ta'mirlandi. Devorlardagi portretlar restavratsiya qilindi, yozuvlar yangilandi, Yangi kitoblar, eksponatlar qo'yildi. Muzeyga kiraverishda o'ng tomonda joylashgan devorlar yangi mazmun bilan boyitildi. Bu devorlarda Samarqand adabiyotshunoslik maktabi asoschilari, akademiklar V.A.Abdullaev va B.N.Valixojayevlar hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi lavhalar va portretlar joylashtirildi.

Agar bu ulug' zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir¹.

Muzeyda saqlanayotgan qo'lyozma asarlar asosida XIX asrda Vatanimizda yashab ijod etgan shoirlar Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Noqis, Nojiy devonlari qo'lyozmalari topildi va tarjima qilinmoqda. Ushbu tarjima asarlar asosida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Muzey endilikda ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyaga aylantirildi.

Buning uchun SamDU huzuridagi Alisher Navoiy muzeyini jahon andozalari darajasiga olib chiqish, rivojlangan mamlakatlardagi zamonaviy madaniy-ma'rifiy, ilmiy maskanlar darajasiga ko'tarish va hozirgi zamon talablariga binoan

¹ И.А.Каримов "Юксак маънавият йенгилмас куч" Тошкент 2008-йил, 47-бет

modernizatsiya va takomillashtirish usulida jihozlash ko'zda tutildi. Hozirgi kunda quyidagi ishlar bajarildi:

- 1) muzey binosini hozirgi zamon dizayni andozalariga muvofiq yangicha restavratsiya qilindi, eksponatlar va nodir qo'lyozmalarni quruq binoda va xavfsiz saqlash uchun ta'mirlash ishlarini amalga oshirildi va muzey xonalari yangi jihozlar bilan boyitildi;
- 2) muzey eksponatlarini qaytadan ro'yxatga olish, qo'lyozmalar kartotekasini yaratish, stellajlar, ko'rgazmali stendlar, turli o'lchamdagi eksponatlarni badiiy bezash, ishlari amalga oshirildi.
- 3) ma'lumotlar bankini yaratildi, Respublikamizdagi va xorijdagi muzeylar bilan aloqa o'rnatildi.
- 4) muzey faoliyati uchun zarur mahsulotlar, orgtexnika jihozlari va kompyuter xarid qilindi;
- 5) Alisher Navoiy muzeyi Web-sayti yaratildi va xalqaro muzeylar assotsiatsiyasi bilan o'zaro hamkorlik ishlari yo'lga qo'yildi;
- 6) muzeyda mavjud manbalarning hamda Alisher Navoiy asarlarining elektron versiyasi yaratildi;
- 7) muzey uchun aholidan yangi nodir qo'lyozma asarlar qo'yildi;
- 8) yong'in xavfsizligi va signalizatsiya bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar amalga oshirildi;
- 9) eshikdan kirishdan chap tomonda – ekskursiyaning boshlanish joyiga elektron axborot kioski o'rnatildi va unga muzey hayotiga oid barcha materiallarning elektron varianti joylashtirildi².

Hozirgi kunda muzey binosi to'liq ta'mirdan chiqarildi, muzey zallariga ekspozitsiyalarni joylashtirish, bezash ishlari esa davom etmoqda. Navoiy Muzeyining yangi mazmunda – milliy davlatchiligimiz tarixi, Markaziy Osiyo ta'lim tizimi tarixi va Mirzo Ulug'bek madrasasining vorisi bo'lmish Samarqand davlat universiteti tarixini o'zida aks ettirgan.

² Мазкур Концепция СамДУ Илмий кенгашининг 2012 йил 13 ноябрда бўлиб ўтган йиғилишида (№3-баённома) муҳокама қилинган ва айтилган таклиф-мулоҳазалар асосида тўлдирилган.